



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBIZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	



O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL

H.S. Bobojonov

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, bo'lim boshlig'i

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Xamdambek0077@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri ekonometrik usullar asosida baholangan. Tadqiqotda 2019-yilda amalga oshirilgan soliq islohotlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash maqsadida OLS regressiya modeli hamda tarkibiy o'zgarish (dummy va interaktiv) modeli qo'llanilgan. Tahlil natijalari 2019-yilgacha soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri manfiy bo'lganligini, soliq islohotlaridan keyin esa mazkur munosabat sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rsatdi. Shuningdek, ishsizlik darajasi iqtisodiy o'sishga salbiy, yalpi asosiy kapital shakllanishi va yakuniy iste'mol xarajatlari esa ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida soliq siyosatining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, iqtisodiy o'sish, OLS regressiya modeli, soliq islohotlari, soliq tushumlari, tarkibiy o'zgarish, iqtisodiy rivojlanish, O'zbekiston.

Аннотация. В статье на основе эконометрических методов проведена оценка влияния налоговой политики на экономический рост в Узбекистане. Для определения воздействия налоговых реформ, осуществлённых в 2019 году, на экономический рост были использованы модель регрессии OLS и модель структурных изменений (dummy и интерактивная модели). Результаты анализа показали, что до 2019 года влияние налоговых поступлений на экономический рост было отрицательным, тогда как после проведения налоговых реформ данная взаимосвязь существенно улучшилась. Также установлено, что уровень безработицы оказывает отрицательное влияние на экономический рост, а валовое накопление основного капитала и конечные потребительские расходы — положительное влияние. На основе полученных результатов разработаны практические предложения по совершенствованию механизмов налоговой политики, направленных на стимулирование экономического роста.

Ключевые слова: налоговая политика, экономический рост, модель регрессии OLS, налоговые реформы, налоговые поступления, структурные изменения, экономическое развитие, Узбекистан.

Abstract. This article evaluates the impact of tax policy on economic growth in Uzbekistan using econometric methods. To identify the effects of the 2019 tax reforms on economic growth, an OLS regression model and a structural change model (dummy and interaction models) were applied. The results indicate that before 2019, tax revenues had a negative impact on economic growth, whereas after the tax reforms this relationship improved significantly. In addition, the unemployment rate was found to have a negative effect on economic growth, while gross capital formation and final consumption expenditure had positive effects. Based on the findings, practical recommendations were developed to improve tax policy mechanisms aimed at stimulating economic growth.

Keywords: tax policy, economic growth, OLS regression model, tax reforms, tax revenues, structural change, economic development, Uzbekistan.

KIRISH

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, mazkur jarayonda soliq siyosati muhim fiskal va tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda investisiyalar, tadbirkorlik faolligi, mehnat bozori va resurslar taqsimotiga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilaydi. Shu bois, soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ilmiy asosda baholash nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-yilda yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi, soliq stavkalari va



imtiyozlarining qayta ko'rib chiqilishi hamda soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi mamlakatning investisiya muhiti va iqtisodiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Biroq mazkur islohotlarning iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatli ta'siri bo'yicha empirik dalillar hanuz yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston misolida soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini zamonaviy ekonometrik yondashuvlar asosida baholash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi samarali soliq siyosati bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari mamlakatda fiskal barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha ilmiy adabiyotlarda dastlab nazariy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ularda soliqlar iqtisodiy faollikka ikki tomonlama ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Barro (1990) endogen o'sish modelida davlat xarajatlari soliqlar orqali moliyalashtirilsa ham, agar ushbu xarajatlar ishlab chiqarish unumdorligini oshirsa, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini asoslagan. Muallif modelida soliqlar xususiy kapital jamg'arilishiga bosim o'tkazadi, biroq samarali davlat xarajatlari orqali ushbu salbiy ta'sir qisman qoplanishi mumkin. Shu jihatdan mazkur tadqiqot soliq yukining iqtisodiy o'sishga ta'sirini faqat soliq stavkalari orqali emas, balki davlat xarajatlarning samaradorligi bilan bog'liq holda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Kneller, Bleaney va Gemmell (1999) fiskal siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'sirini nazariy va empirik jihatdan bog'lab, soliqlarni "buzuvchi" va "kamroq buzuvchi" soliqlar sifatida tasniflash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, soliq siyosatining o'sishga ta'siri soliqlarning umumiy hajmiga emas, balki soliqlar va davlat xarajatlari tarkibiga bog'liq. Shu sababli iqtisodiy o'sishni baholashda byudjet cheklovi va soliq tushumlarining qanday xarajatlarga yo'naltirilishi inobatga olinishi lozim.

Mankiw, Weinzierl va Yagan (2009) optimal soliqqa tortish nazariyasi doirasida soliq tizimi samaradorlik va adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, yuqori soliq stavkalari mehnat taklifi, investisiya va jamg'arma qarorlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin, biroq soliqlar ijtimoiy qayta taqsimlash va davlat xizmatlarini moliyalashtirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Demak, soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri uning faqat fiskal funksiyasi emas, balki tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalari orqali ham namoyon bo'ladi.

Xalqaro empirik tadqiqotlarda soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik asosan soliq yuki, soliq tarkibi va alohida soliq turlari ta'siri orqali baholangan. Lee va Gordon (2005) 1970–1997-yillar bo'yicha mamlakatlarda ma'lumotlar asosida korporativ soliq stavkalari iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Ularning natijalariga ko'ra, korporativ soliq stavkasining yuqori bo'lishi investisiya faolligi va xususiy sektor rivojlanishini cheklaydi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Johansson, Heady, Arnold, Brys va Vartia (2008) 21 ta OECD mamlakati bo'yicha panel regressiyalar asosida soliq tarkibining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korporativ daromad solig'i iqtisodiy o'sish uchun eng salbiy soliq turi hisoblanadi, undan keyin jismoniy shaxslar daromad solig'i, iste'mol soliqlari va mulk soliqlari turadi. Bu xulosa soliq siyosatini takomillashtirishda soliq yukini kamaytirishdan ko'ra uning tarkibini optimallashtirish muhimroq ekanligini ko'rsatadi.

Furceri va Karras (2011) 1965–2007-yillar davrida 26 ta OECD mamlakati ma'lumotlari asosida soliq o'zgarishlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholaganlar. Ular soliqlarning oshishi real YAIMning jon boshiga hajmiga salbiy va barqaror ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Mazkur tadqiqot soliq siyosatining ta'siri qisqa muddatda emas, balki vaqt o'tishi bilan kuchayib borishi mumkinligini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Acosta-Ormaechea va Yoo (2012, 2019) keng qamrovli mamlakatlarda ma'lumotlar asosida soliq tarkibi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni tahlil qilganlar. Mualliflar daromad soliqlari ulushining ortishi iste'mol va mulk soliqlari hisobiga amalga oshirilganda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir kuchayishini aniqlaganlar. Shu bilan birga, ular past va o'rta daromadli mamlakatlarda soliq tarkibini o'zgartirish natijalari institutsional muhit va soliq ma'murchiligi sifatiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

Alinaghi va Reed (2021) soliqlar va iqtisodiy o'sish bo'yicha mavjud empirik tadqiqotlarni meta-tahlil qilib, soliqlarning o'sishga ta'siri bir xil emasligini ko'rsatadilar. Ularga ko'ra, natijalar tadqiqotlarda qanday soliq ko'rsatkichi tanlangani, davlat xarajatlari hisobga olingani yoki olinmagani, shuningdek, byudjet cheklovi qanday modellashtirilganiga bog'liq. Bu xulosa soliq siyosatini baholashda oddiy korrelyatsion yondashuvlar yetarli emasligini va ekonometrik modellarda fiskal siyosatning kompleks xususiyati inobatga olinishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha adabiyotlarda soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri asosan soliq yuki, soliq tizimi islohotlari va byudjet daromadlari orqali tahlil qilingan. Niyazmetov, Rakhmonov va Otabekov (2023) O'zbekiston



iqtisodiyoti misolida soliq yukining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholab, 2000–2019-yillar uchun optimal soliq yuki taxminan 19 foiz atrofida ekanligini aniqlaganlar. Ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida soliq yuki va iqtisodiy o'sish o'rtasida chiziqsiz munosabat mavjudligini ko'rsatadi hamda soliq yukini maqbul darajada targetlash YAIM tafovutini qisqartirishga xizmat qilishi mumkinligini asoslaydi.

Zarif (2022) soliqqa tortishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, soliq munosabatlarini optimallashtirish, soliq yukini maqbullashtirish va soliq to'lovchilar uchun qulay institutsional muhit yaratish iqtisodiy faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu maqola O'zbekistonda soliq siyosatini iqtisodiy o'sish bilan bog'lashda nazariy-amaliy yondashuvni ilgari suradi.

Zaripov (2022) O'zbekiston soliq tizimi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, soliq siyosati mamlakatda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, investisiya muhitini yaxshilash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligini qayd etadi. Muallif soliq tizimidagi islohotlar, xususan, soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliq imtiyozlarini samarali qo'llash iqtisodiy o'sish uchun muhim shartlardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri bir yo'nalishli emasligini ko'rsatadi. Nazariy adabiyotlarda soliqlar iqtisodiy o'sishni cheklovchi omil sifatida ham, samarali davlat xarajatlari orqali o'sishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ham qaraladi. Xalqaro empirik tadqiqotlarda esa soliq tarkibi, ayniqsa, korporativ va daromad soliqlari iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlar hali cheklangan bo'lib, ular asosan soliq yukining maqbul darajasi, soliq tizimi islohotlari va soliq tushumlarining iqtisodiy faollikka ta'siriga qaratilgan. Shu bois O'zbekistonda soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini ekonometrik modellar asosida kompleks baholash ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq tushumlari (LTR)ning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda 2019 yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan soliq islohotlaridan keyin ushbu ta'sirning o'zgarishini baholash uchun eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Squares – OLS) qo'llanildi. OLS modeli o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'lanishni baholash va soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlashda keng qo'llaniladigan klassik ekonometrik yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqotda iqtisodiy o'sishni ifodalovchi bog'liq o'zgaruvchi sifatida yalpi ichki mahsulotning real o'sish sur'ati (GDPg) qabul qilindi. Asosiy mustaqil o'zgaruvchi sifatida yalpi soliq tushumlari (LTR) dan foydalanildi. Soliq tushumlaridan tashqari iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi boshqa makroiqtisodiy omillarning ta'sirini nazorat qilish maqsadida ishsizlik darajasi (Unemployment), yalpi asosiy kapital shakllanishi (Gross Fixed Capital Formation), yakuniy iste'mol xarajatlari (Final Consumption Expenditure) hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (Foreign Direct Investment) modelga nazorat o'zgaruvchilari sifatida kiritildi.

2019 yildan boshlab mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli soliq islohotlari soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'zgartirgan bo'lishi mumkinligini hisobga olib, modelga tarkibiy siljishni aks ettiruvchi dummy o'zgaruvchi (D2019) hamda uning soliq tushumlari bilan o'zaro ta'sirini ifodalovchi interaktiv o'zgaruvchi (D2019×LTR) kiritildi. Dummy o'zgaruvchi 2019 yilgacha bo'lgan kuzatuvlar uchun 0, 2019 yil va undan keyingi davr uchun esa 1 qiymatini qabul qiladi.

Tadqiqotda baholangan iqtisodiy model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\Delta GDP_t = \beta_0 + \beta_1 TTR_t + \beta_2 D2019_t + \beta_3 (D2019_t \times LTR_t) + \beta_i X_t + \varepsilon_t$$

bu yerda:

ΔGDP_t – yilda iqtisodiy o'sish sur'ati;

TTR_t – jami soliq tushumlari;

$D2019_t$ – 2019 yildan keyingi davrni ifodalovchi "dummy" o'zgaruvchi;

$(D2019_t \times LTR_t)$ – 2019 yildan keyin soliq tushumlari ta'sirining o'zgarishini aks ettiruvchi interaktiv o'zgaruvchi;

$\beta_i X_t$ – nazorat o'zgaruvchilari bo'lib, quyidagilarni ifodalaydi: UNEMP_t – ishsizlik darajasi; GFCF_t – yalpi asosiy kapital shakllanishining o'sish sur'ati; FCE_t – yakuniy iste'mol xarajatlari o'sish sur'ati; FDI_t – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning YAIMdagi ulushi; ε_t – tasodifiy xato hadi. Ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar Jahon banki va O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portalidan olindi.



Modelda β_1 koeffitsiyenti 2019 yilgacha bo'lgan davrda soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ifodalaydi. β_3 koeffitsiyenti esa 2019 yildan keyin mazkur ta'sirning qanchalik o'zgarganini baholaydi. Shuningdek, 2019 yildan keyingi umumiy ta'sir ($\beta_1 + \beta_3$) chiziqli kombinatsiya (linear combination) yordamida baholandi. "Dummy" va interaktiv o'zgaruvchilarning birgalikdagi ahamiyatligi Wald (F) testi orqali tekshiriladi.

OLS baholash natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida klassik regressiya taxminlari bir qator diagnostik testlar orqali tekshirildi. Xususan, dispersiyaning doimiyligi Breusch–Pagan/Cook–Weisberg geteroskedastiklik testi, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emasligi Breusch–Godfrey LM testi, qoldiqlarning normal taqsimlanganligi Skewness/Kurtosis normallik testi hamda model spesifikatsiyasining to'g'riligi Ramsey RESET testi yordamida baholanadi (1-jadval).

1-jadval
Tadqiqotda qo'llanilgan o'zgaruvchilarning tavsifiy statistikasi, multikollinearlik (VIF) va korrelyatsiya tahlili natijalari¹

O'zgaruvchilar	Δ GDP	TTR	UNEMP	GFCF	FCE	FDI
Kuzatuvlar (N)	29	29	29	29	29	29
O'rtacha qiymat	6.4	52099.1	6.7	11.5	5.5	1.7
Standart og'ish	1.8	74407.43	2.8	10.7	4.1	0.9
Minimal qiymat	1.6	215.7	4.4	-5.0	-3.0	0.5
Maksimal qiymat	9.5	272393.0	13.3	37.6	12.5	3.4
VIF test	-	1.44	2.67	1.45	1.30	1.96
O'zgaruvchilar	Δ GDP	TTR	UNEMP	GFCF	FCE	FDI
Δ GDP	1.000					
TTR	0.055	1.000				
UNEMP	-0.619	-0.481	1.000			
GFCF	0.404	0.189	-0.406	1.000		
FCE	0.552	0.218	-0.451	-0.042	1.000	
FDI	0.345	0.506	-0.635	0.286	0.123	1.000

Tadqiqotda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning tavsifiy statistikasi, multikollinearlik (VIF) va korrelyatsiya tahlili natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, VIF qiymatlarining 1.30–2.67 oralig'ida bo'lishi mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida jiddiy multikollinearlik mavjud emasligini ko'rsatadi. Korrelyatsiya tahliliga ko'ra, iqtisodiy o'sish ishsizlik bilan manfiy (-0.619), yakuniy iste'mol xarajatlari (0.552) va yalpi asosiy kapital shakllanishi (0.404) bilan esa ijobiy bog'liqlikka ega. Soliq tushumlari (TTR) bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi korrelyatsiyaning past darajada (0.055) bo'lishi soliq siyosatining ta'sirini boshqa makroiqtisodiy omillar nazorat qilingan holda ekonometrik model orqali baholash zarurligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash maqsadida OLS regressiya modeli baholandi. Bunda 2019-yilda amalga oshirilgan soliq islohotlarining mazkur munosabatga ta'sirini aniqlash uchun vaqt bo'yicha tarkibiy o'zgarish (structural break) modeli qo'llanilib, D2019 dummy o'zgaruvchisi hamda uning soliq tushumlari bilan interaktiv hadi ($D2019 \times LTR$) modelga kiritildi. Tahlil natijalari asosida modelning statistik muvofiqligi, soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, 2019-yildan keyin ushbu ta'sirning o'zgarishi hamda modelning ishonchligi diagnostik testlar orqali baholandi (2-jadval).

¹ Муаллиф томонидан STATA-15 дастури ёрдамида ҳисобланди.

2-jadval
REGRESSION TAHLIL NATIJALARI²

O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent
<i>LTR</i>	-1.010*** (0.270)
<i>D2019</i>	-30.270** (13.089)
<i>D2019 × LTR</i>	2.554** (1.089)
<i>UNEMP</i>	-0.699*** (0.169)
<i>GFCF</i>	0.041** (0.018)
<i>FCE</i>	0.221*** (0.052)
<i>FDI</i>	0.493 (0.308)
Konstanta	18.028*** (3.647)
Model ko'rsatkichlar	Qiymat
Kuzatuvlar soni	29
R^2	0.821
Tuzatilgan R^2	0.762
F-statistika	13.79***
Root MSE	0.912
Diagnostic test natijalari	Qiymat
Breusch–Pagan test p-qiymati	0.787
Breusch–Godfrey LM test p-qiymati	0.228
Normallik testi p-qiymati	0.371
Ramsey RESET p-qiymati	0.614
Qo'shimcha testlar	Koeffitsiyent/F
2019 yilgacha LTTR ta'siri	-1.010***
2019 yildan keyin LTTR umumiy ta'siri	1.544
D2019 va D2019×LTTR birgalikda ahamiyatlili (F)	2.86*
D2019×LTR alohida ahamiyatlili (F)	5.50**

Jadvalda keltirilgan OLS modeli natijalari modelning umumiy statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Xususan, F-statistika 13.79 bo'lib, tushuntiruvchi o'zgaruvchilarning iqtisodiy o'sishga birgalikda ta'siri ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. $R^2 = 0.821$ hamda tuzatilgan $R^2 = 0.762$ modelning yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega ekanligini, Root MSE = 0.912 esa prognoz xatolarining nisbatan pastligini ko'rsatadi.

Regressiya natijalariga ko'ra, 2019-yilgacha soliq tushumlari (LTR)ning iqtisodiy o'sishga ta'siri manfiy va statistik ahamiyatli bo'lib (-1.010), soliq tushumlarining ortishi iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Biroq, D2019 × LTTR interaktiv o'zgaruvchisining musbat va ahamiyatli koeffitsiyenti (2.554) 2019-yilgi soliq islohotlaridan keyin mazkur ta'sir sezilarli darajada yaxshilanganligini anglatadi. Demak, soliq tushumlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat islohotlardan keyin ijobiy tomonga o'zgargan.

Nazorat o'zgaruvchilari ichida ishsizlik darajasi iqtisodiy o'sishga manfiy (-0.699), yalpi asosiy kapital shakllanishi (0.041) va yakuniy iste'mol xarajatlari (0.221) esa ijobiy ta'sir ko'rsatdi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar koeffitsiyenti musbat bo'lgan bo'lsa-da, statistik ahamiyatga ega emas.

Qo'shimcha testlar natijalariga ko'ra, 2019-yilgacha LTTRning iqtisodiy o'sishga ta'siri manfiy va ahamiyatliliqicha qolmoqda (-1.010). 2019-yildan keyingi umumiy ta'sir (1.544) musbat bo'lgani holda statistik ahamiyatli emas. Biroq, D2019 × LTTR interaktiv hadining alohida ahamiyatlili (F = 5.50) hamda D2019 va D2019 × LTTR o'zgaruvchilarining birgalikdagi ahamiyatlili (F = 2.86) 2019-yilgi soliq islohotlari iqtisodiy o'sish modelida tarkibiy o'zgarishni yuzaga keltirganligini ko'rsatadi.

Diagnostic testlar modelning ishonchliliqini tasdiqlaydi. Breusch–Pagan, Breusch–Godfrey, Skewness/Kurtosis va Ramsey RESET testlari natijalariga ko'ra, modelda geteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va spetsifikatsiya xatolari aniqlanmadi hamda qoldiqlar normal taqsimlangan.

Umuman olganda, natijalar 2019-yilgi soliq islohotlari soliq tushumlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni yaxshilanganligini ko'rsatadi. Islohotlargacha soliq tushumlarining ta'siri manfiy bo'lgan bo'lsa,

2 Muallif tomonidan STATA-15 dasturi ёрдамида ҳисобланди.



islohotlardan keyin mazkur ta'sir musbat yo'nalishga o'zgargan. Bu soliq tizimini liberallashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi, biroq bu ijobiy ta'sirni yanada ishonchli baholash uchun uzoqroq vaqt qatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda soliq tushumlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat 2019-yilgi soliq islohotlaridan keyin sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rsatdi. OLS modeliga ko'ra, 2019-yilgacha soliq tushumlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri manfiy va statistik ahamiyatli bo'lgan bo'lsa, islohotlardan keyin mazkur ta'sir ijobiy tomonga o'zgargan. Bu soliq tizimini liberallashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga ijobiy hissa qo'shganligini anglatadi.

Olingan natijalar asosida soliq siyosatini takomillashtirishda soliq yukini oshirish emas, balki soliq bazasini kengaytirish, soliq komplayensini kuchaytirish va raqamli soliq ma'muriyatchiligini yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, investisiyalar va ishlab chiqarish faolligini rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlarini kengaytirish hamda soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini muntazam baholab borish mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Acosta-Ormaechea, S., & Yoo, J. (2012). *Tax composition and growth: A broad cross-country perspective* (IMF Working Paper No. WP/12/257). International Monetary Fund.
2. Acosta-Ormaechea, S., & Yoo, J. (2019). Tax composition and growth: A broad cross-country perspective. *German Economic Review*, 20(4), e70–e106.
3. Alinaghi, N., & Reed, W. R. (2021). Taxes and economic growth in OECD countries: A meta-analysis. *Public Finance Review*, 49(1), 3–40.
4. Barro, R. J. (1990). Government spending in a simple model of endogenous growth. *Journal of Political Economy*, 98(5), S103–S125.
5. Furceri, D., & Karras, G. (2011). Tax changes and economic growth: Empirical evidence for a panel of OECD countries. *European Central Bank Public Finance Workshop Paper*.
6. Johansson, Å., Heady, C., Arnold, J., Brys, B., & Vartia, L. (2008). *Taxation and economic growth*. OECD Economics Department Working Papers, No. 620.
7. Kneller, R., Bleaney, M. F., & Gemmell, N. (1999). Fiscal policy and growth: Evidence from OECD countries. *Journal of Public Economics*, 74(2), 171–190.
8. Lee, Y., & Gordon, R. H. (2005). Tax structure and economic growth. *Journal of Public Economics*, 89(5–6), 1027–1043.
9. Mankiw, N. G., Weinzierl, M., & Yagan, D. (2009). Optimal taxation in theory and practice. *Journal of Economic Perspectives*, 23(4), 147–174.
10. Niyazmetov, I. M., Rakhmonov, A. S., & Otabekov, O. (2023). Economic growth and optimal tax burden: A case of Uzbekistan's economy. *Journal of Tax Reform*, 9(1), 47–63.
11. Zarif, A. (2022). The impact of taxation on economic growth. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*.
12. Zaripov, K. B. (2022). Trends in the development of the tax system of the Republic of Uzbekistan. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>